



KISLOTA-ASOSLI MUVOZANAT. BUFER SISTEMALAR.

Jabborova M.¹ Toxirova D². Saidobbozov S.³

Kokond university Andijon filiali

Pediatriya yo‘nalishi talabasi^{1,2}

Kokand university Andijon filiali

v.b.dosent PhD³

Annotatsiya: Ushbu Maqola ishida organizmdagi kislota-asosli muvozanatning biologik va kimyoviy asoslari hamda uni me'yorda saqlovchi bufer sistemalarning ahamiyati yoritilgan. Bikarbonat, fosfat va oqsilli buferlar faoliyatining nazariy asoslari, ularning fiziologik muvozanatni saqlashdagi roli hamda bufer tizimlarining buzilishi natijasida yuzaga keladigan asoratlari tahlil qilingan. Ishda kislota-asosli muvozanatni baholash usullari, zamonaviy diagnostika yondashuvlari va klinik ahamiyati ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari bufer sistemalarning tibbiyot va biologiyada tutgan o‘rni haqida chuqr tushuncha beradi.

Kirish: Organizmdagi kislota-asosli muvozanat va bufer sistemalar haqida ko‘proq ma’lumot O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida [1] va "Biokimyo" darsligida [3] berilgan. Kislotalar va asoslarning elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasi to‘g‘risida ma’lumot "Anorganik kimyo asoslari" [5] asarida tafsilotli yoritilgan. Bufer sistemalarning fiziologik roli va ularning tibbiy ahamiyati "Textbook of Medical Physiology" [2] va "Fiziologik bufer tizimlari" [9] asarlarida muhokima qilingan. Kislotalar va asoslarning zamonaviy nazariyasi "Kimyoviy bufer sistemalar" [8] kitobida tahlil qilingan.

Kislotalar -vodorod ioni (praton) berish qobiliyatiga ega bo‘lgan moddalar. Masalan xlorid kislota (HCl), sirka kislotasi (CH_3COOH). Kuchli kislotalar suvda to‘liq dissotsilanib, ko‘p miqdorda H^+ ionlarini hosil qiladi, zayif kislotalari esa qisman dissotsilanadi .



Har qanday suvli eritmada bir vaqtning o‘zida ham H⁺ ham OH ionlari mavjud bo‘ladi. Sababi suv kuchsiz elektrolit bo‘lsa ham, dissitsiatsiyalanib H⁺va OH⁻ ionlarini hosil qiladi:

Bufer sistemalar, bufer eritmalar, bufer aralashmalar-vodorod N ionlar siyasining ma’lum konsentratsiyasini saqlab turuvchi sistemalardir.

Bufer eritmalar suyultilganda yoki ularga bir oz kislota yoki ishqor qo‘shilganda ham muayyan kislotali xossalari diyarli o‘zgarmaydi. Bufer sistemalarga sirka kislotasi SN,SOON bilan ununig natriyli tuzi CH₃COONa aralashmasi misol bo‘la oladi. Eritmalardagi kislota mukdori vodorod ko‘rsatkich rN bilan belgilanadi (neytral eritmalar uchun Rn7, kislotali eritmalar uchun rN7 dan kichik va ishkorli eritmalar uchun rN7 dan katta). Bufer sistemalarning kislotaligi (o‘z navbatida rN) komponentlar tabiati, konsentratsiyasi va ba’zi bir Bufer sistemalar uchun traga ham bog‘likdir. Bufer sistemalar kimyo sa`noatida analitik ishlarda keng qo‘llaniladi. Odam va hayvonlar organizmidagi Bufer sistemalar quyidagilardan iborat: karbon kislota va uning tuzlari, fosfat kislota va uning tuzlari hamda oqsillar. Kishi qonidagi rN 7,35—7,47 ga teng bo‘lib, oziq-ovqat hamda boshqa sharoit o‘zgarganda ham deyarli doimiy qoladi. Tuproqdagi tabiiy Bufer sistemalar dalalar hosildorligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Kislota va asoslar — kimyoviy birikmalarining katta guruhlari. Odatda, tarkibida vodorod bo‘lgan (HCl, HNO₃, H₂SO₄, CH₃COOH va hokazo) va suvda erigan (aralashgan)da dissotsiatsiyalanib, ionlar H⁺ (protonlar), yoki aniqrog‘i, gidroksoniy H₃O⁺ ionlari hosil qiladigan moddalar kislotalar deyiladi. Ajralgan protonlar soniga qarab bir asosli xlorid, sirka kislotalar — HNO₃, HCl, CH₃COOH), ikki asosli (sulfat, karbonat kislotalar — H₂SO₄, H₂CO₃), uch asosli (ortofosfat kislota — H₃PO₄) kislotalar mavjud. Kislotaning suvdagi eritmasida gidroksoniy ionlari qancha ko‘p bo‘lsa, ya’ni kislota qancha ko‘p dissotsiatsiyalansa, u shuncha kuchli bo‘ladi. Ionlanish konstantari 105 dan kam



kislotalar (sirka kislota $1,8 \cdot 10$ karbonat kislota $3,5-10^{-7}$, sianid kislota $7,8 \cdot 10^{-10}$) kuchsiz kislota hisoblanadi. Kislotalarning suvdagi eritmalari elektr tokini o'tkazadi, indikatorlar rangini o'zgartiradi (mas, kislota ta'sirida ko'k lakmus qizaradi). Organik kislotalar haqida karbon kislotalarga qarang.

Tarkibida gidroksil guruhi OH- [KOH, NaOH, Ca(OH)2 va boshqa] bo'lgan hamda suvdagi eritmasida gidroksil ionlar OH- hosil qiladigan moddalar asoslar deyiladi. Ko'pgina asoslar suvda erimaydi. Suvda eriydigan asoslar ishqorlar deb ataladi. Ishqorlar ham indikatorlar rangini o'zgartiradi. Tarkibidagi gidroksil guruhi soniga qarab bir, ikki, uch kislotali asoslar bo'ladi. Suvda to'la dissotsiatsiyalanmaydigan asoslar kuchsiz asoslar (mas, ammoniy gidroksid NH4OH), kaliy gidroksid KON, natriy gidroksid NaOH, bariy gidroksid Ba(OH)2 kuchli asoslardir.

K. va a. ta'rifiga doir turli fikrlar mavjud. Shved olimi S. Arreniusning elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasiga ko'ra (1887), suvda dissotsiatsiyalanganda vodorod N+ ionlari va anionlar hosil qiladigan birikmalar kislotalar deb, dissotsiatsiyalanganda gidroksil ionlari OH- va kationlar ajratib chikaradigan birikmalar asoslar deb ataladi. K. va a. tushunchasini elektrolitik dissotsiatsiya nazariyayen asosida tushunish amaliy ishlar uchun kifoya qiladi. Lekin K. va a. xossaliga ega bo'lgan ko'pgina birikmalar tarkibida vodorod ham, OH- guruhi ham yo'qligi ancha ilgari aniqlangan. Bundan tashqari, bir moddaning o'zi ba'zi reaksiyalarda kislota, boshqa reaksiyalarda esa asos sifatida namoyon bo'ladi. Modsalarning kislota yoki asosga mansubligini belgilaydigan mezon hozircha topilgani yo'q. Daniyalik fizik kimyogar I.N. Bryonsted va T. Lourining proton va amerikalik fizik kimyogar G.N. Lyuisning elektron konsepsiysi keng tarqalgan (1923). Bryonsted tarkibida vodorod bo'lib, reaksiyada proton beradigan moddalarni kislotalar sinfiga, o'ziga elektron qabul qiladigan moddalarni esa



asoslar sinfiga kiritadi. Kislotadan asosga proton o‘tadigan reaksiya kislota-asosli yoki protolitik reaksiya deyiladi. $\text{AN}+\text{V}\sim \rightleftharpoons \text{A}+\text{VN}$ (AN — kislota, V — asos).

Bryonstedning konsepsiysi bir oz cheklangan. Chunki tarkibida vodorod bo‘lmasada, kislota xossalariiga ega bo‘lgan moddalar ham mavjud. Bo‘larga elektroni kam birikmalar, mas, alyuminiy, bor, qalay galogenidlari, ba’zi metallarning oksidlari va boshqa kiradi. Lyuisning fikricha, kimyoviy reaksiya jarayonida o‘ziga bir juft elektron biriktirib oladigan moddalar kislota, ikkita elektron beradigan moddalar esa asoslar deyiladi. Natijada kislota molekulasi asos hisobiga elektron bilan to‘ladi va barqaror elektron qavatli (qisman oktet) va donor-akseptor bogli yangi birikma (to‘z) hosil bo‘ladi: $\text{N}\text{G}\text{H}\text{N}:\text{+B:FN}$ $\text{FN}\text{G}\text{H}\text{N}: \text{B:F}$ NF (bu yerda BF_3 — kislota, NH_3 — asos). Lyuisning fikricha, kislota-asos reaksiyalarning xususiyatlari asos elektron juftining umumiy bo‘lib qolishi bilan bog‘likdir. Bu reaksiyalar shunisi bilan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan farq qiladi. Chunki oksidlanishqaytarilish reaksiyalarida oksidlovchining molekulalari qaytariluvchi modda molekulasidagi bir yoki bir necha elektronni butunlay tortib oladi. Bryonsteddan farqli ravishda Lyuis kislota-asos xossalarni muayyan kimyoviy element (vodorod) bilan emas, balki atomlar tashqi elektron qobig‘ining to‘zilishi bilan bog‘laydi. Bryonsted va Lyuis nazariyalaridan amaliyotda keng foydalilanildi.

Elektron va proton nazariyalarini M.I.Usanovich taklif qilgan nazariya (1939—53) birlashtiradi. Bu nazariyaga asosan kationlarini bera oladigan yoki anionlarni birlashtira oladigan moddalar kislotalar, anionlar ajratadigan yoki kationlarni birlashtira oladigan moddalar asoslar deb ataladi, mas: $\text{Fe}(\text{CN})_3(\text{K}-\text{Ta}) + 3\text{KCN}(\text{acoc}) \xrightarrow{-} \text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]\text{SN}_3\text{I}$ (k-ta) $+ \text{N}(\text{CH}_3)_3(\text{acoc}) \xrightarrow{-*} (\text{CH}_3)_4\text{NI}$ Kislota-asos jarayonlari (neytrallash, gidroliz, metallarni o‘yish va boshqalar) keng qo‘llanadi. Ko‘pgina kislotalar (sulfat, nitrat, xlorid, ortofosfat) va ishqorlar (o‘yuvchi kaliy, o‘yuvchi natriy va boshqalar) kimyo sanoatining asosiy



xom ashyolaridandir. Tirik organizmdagi bir qancha biokimyoviy jarayonlarda K. va a. ishtirok etadi. Tirik tabiatdagi universal, muhim birikma — nuklein kislotalar va oqsillar polimer K. va a.dir. Ayrim K. va a. organizmga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi. Mas, xlorid kislotaning suyultirilgan eritmalari tibbiyotda me'da shirasini ko'paytirish uchun, borat kislota eritmasi dezinfeksiya maqsadlarida ishlatiladi. Ammo yuqori konsentratsiyadagi K. va a. organizmga kirganda ichki organlarning qattiq kuyishiga, qonning bo'zilishiga, yurak faoliyatining susayishiga va ba'zan o'limga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa:

Bufer sistemalar — organizmda pH muvozanatini ushlab turuvchi birinchi va eng muhim himoya chorasidegi. Har bir bufer tizimi o'ziga xos joylashuv va mexanizmga ega. Bikarbonat tizimi tezkor javob, fosfat tizimi hujayra ichida, oqsillar esa umumiy hajmda eng yirik bufer tizim bo'lib, gemoglobin orqali qon buferligida ustunlik qiladi. Ammiak tizimi esa buyuraklarda surunkali asidozga javob beradi.

Manbalar:

Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: O'zME, 2000-2005.
2. Beketova, M.A., Qobilov, F.R. *Biokimyo*. Toshkent: Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, 2022.
3. Sodiqov, A.S. *Kislota-asosli muvozanat va bufer sistemalar*. Toshkent: "Fan", 2020.



4. Xudayberganov, R.X. *Anorganik kimyo asoslari*. Toshkent: "O'qituvchi", 2019.
5. Rahimov, A.A. *Kislotalar va asoslarning nazariyasi*. Toshkent: "Universitet", 2023.
6. Karimov, B.B. *Biologik kimyo*. Toshkent: "Ilm-Kitob", 2021.
7. Asrorov, A.A. *Kimyoviy bufer sistemalar*. Toshkent: "Fan va Texnologiya", 2022.
8. Nigmatullaev, N.M. *Fiziologik bufer tizimlari*. Toshkent: "Tibbiyot", 2020.
9. Xalilov, X.K. *Kislota-asosli muvozanat va uning ahamiyati*. Toshkent: "Fan va Ta'lim", 2023.